

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI TARJIMONLIK FAKULTETI
ARAB TILI YO'NALISHI**

**III KURS, "A" GURUH TALABASI USMONOV MUROD QOSIMOVICHning
"ASOSIY CHET TILI ARAB TILI" FANIDAN YOZGAN**

KURS ISHI

Mavzu: Ismning nasb o'rinlarining grammatik xususiyatlari

Bajardi:

Usmonov M.

Qabul qildi:

Alamov Sh.

SAMARQAND-2015

Reja

Kirish:

Arab tilini O'zbekistonda o'rganilishi tarixi

Asosiy qism:

- I. Ismning nasb o'rinlari**
- II. Maf'ulun bih, Maf'ulun mutlaq, Maf'ul liajlihi, Maf'ul fiyh haqida**
- III. Maf'ulun ma'hu, "Illa" mustasno hol haqida.**
- IV. Tamyiz, Munada, Kana va uning xabari, Inna va uning ismi haqida**

Xulosa.

Foydalanilgan adabyotlar.

Kirish .

Prezident Islom Karimovning “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimida nutqidan.(2014-yil 15-may)

Bugun hech bir mubolag‘asiz aytish mumkin va buni men alohida qayd etmoqchiman, o‘rta asrlar Sharq daholarining buyuk kashfiyotlaridan iborat ilmiy merosning chuqur qatlamlari hali to‘liq o‘rganilmagan va o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Axir, faqatgina O‘zbekistonning o‘zida kitob fondlarida 100 mingtadan ziyod qo‘lyozma asarlar saqlanmoqda. Ularning asosiy qismi YuNESKOning Madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan. O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining qo‘lyozmalari Yevropa va Osiyoning Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Rossiya, Fransiya, Misr, Hindiston, Eron va boshqa ko‘plab mamlakatlaridagi kutubxonalarning “oltin fond”ini tashkil etadi.

Bu faktlar nimadan dalolat beradi? Bu, eng avvalo, o‘rta asrlarda yashab, ijod etgan buyuk Sharq alloma va mutafakkirlarining tengsiz asarlari va ilmiy merosi faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma‘naviy mulki ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu – bebaho boylik, yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, kerak bo‘lsa, yangi kashfiyotlar uchun ajoyib materialdir.

Bizning davrimizgacha yetib kelgan bu boy merosdan butun bashariyat ravnaqi

yo'lida oqilona va samarali foydalanish – bu siz bilan bizning vazifamiz, siz bilan bizning burchimizdir.

Respublikamiz o'z mustakilligini qo'lga kiritgan kundan boshlab xalkimiz ma'naviy-madaniy boyliklarini xar tomonlama o'rganish, ularni kelgusi avlodlarga to'liq etkazish va xozirgi avlodni ulardagi ijobiy an'analar asosida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormokda.

Uzok tarixga ega bo'lgan o'zbek xalki, uning yuksak madaniyati, kadriyatlari, boy ilmiy merosi butun jaxonning diqqat - e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan va kelmokda. Ibn Sino, Beruniy, Ulugbek, Muhammad al-Xorazmiy, Maxmud Zamaxshariy, Al Farg'oniy kabi buyuk ajdodlarimizning nomlari va yaratgan asarlari mashxur bo'lib, ularning ijodlari jaxon madaniyati xazinasiga ko'shilgan bebaxo boylik bo'lib xisoblanadi. Ammo shu allomalar yaratgan ilmiy asarlar, yozma yodgorliklarning aksariyati to'laligicha o'rganilgan emas. Mustakillik yillarida buyuk vatandoshlarimizning yaratgan boy ilmiy meroslari o'rganila boshladi va bu yo'lda bugungi yosh o'sib kelayotgan kadrlarimizga keng imkoniyatlar yaratib berildi. Xususan arab tiliga bo'lgan e'tibor yanada oshdi va bu bilan Movaraunnahr va xuroson o'lkalariga VI-VII asrlarda kirib kelgan arab tili va arab yozuvi va shu davrdan boshlab toki Chor Rossiyasi yurtimiz hududiga kirib kelguniga qadar arab yozuvi asosida yaratilgan boy ilmiy me'rosimizni o'rganish va tadqiq qilish imkoniyatlari eshigi ochildi. Bu biz uchun asrlar davomida hali tadqiq qilinmagan va o'rganilmagan ma'naviy, madaniy, ilmiy meroslarimizni omma e'tiboriga havola etib milliy meroslarimizni o'rganishda bo'gan ilmiy tadqiqotlar salmog'ini oshirish uchun xizmat qiladi.

Horirgi arab tili ham jahon tillaridan biri hisoblanadi. Arab tilida bugungi kunda laxja va shevalarning ortib ketishi sof arab tilini ya'ni, fus'ha tilini o'rganish zaruratini talab qiladi. Fus'ha tilini o'rganish uchun esa arab tili grammatikasini mukammal o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi. Arab tili grammatikasi boshqa

dunyo tillarining grammatikasiga qaraganda anchagina murakkabligi bilan ham alralib turadi. Arab ko'p davrlardan beri o'rganilmoqda xususan Mahmud Zamaxshariy arab tili grammatikasini tuzib chiqadi. Bunan tashqari arab tili ustida ish olib borgan olimlardan Grande, Talabov, Xolidov, Hasanov, Ne'matullo Ibrohimov, Muhammad Yusupov, Sunnatullo Bekpolatov va shu kabi boshqa sharqshunos olimlarni nomlarini sanab o'tishimiz mumkin.

Biz ushbu kurs ishida arab tilidagi harf so'z turkumi, uning xususiyatlari, morfologik va sintaktik munosabatlari, so'zlarga qo'shilganda unga beradigan ma'nolari va so'zlarga ko'rsatadigan ta'sirlari haqida so'z yuritiladi. Arab tili harf so'z turkumi o'z ichiga predloglar, yuklamalar, kana va uning birodarlari deb nomlanuvchi fe'lga ta'sir qiluvchi yuklamalar guruhi, inna va uning birodarlari deb nomlanuvchi egaga ta'sir qiluvchi yuklamalar guruhi, nido harflari, bog'lovchilar va so'roq ma'nosini ifodalovchi harflar kiradi.

مفعول به

Maf'ul bih (to'ldiruvchi)

الكتاب حفظ محمد الكتاب Muhammad kitobni yodladi jumlasidagi “الكتاب kitobni” so'zi maf'ul bih deyiladi.

Olamda ro'y beradigan har bir ishning bajaruvchisi (fo'ili) bo'ladi. Bu ish-harakat biror ishni bajarish uchun sodir bo'ladi. Ish-harakatni bajaruvchi kishi yoki narsaga dalolat qiluvchi so'z «fo'il» deb ataladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, uni raf' holatida o'qish lozim. Ish-harakat sodir bo'lishiga dalolat qiluvchi so'z «maf'ul bih» deyiladi. Maf'ul bihni nasb holatida o'qish lozim.

Agar biz قطع محمود الغسن (Mahmud shoxni kesdi) deb aytsak, Mahmud

fo'il «g'usna» (shox) so'zida kesish ish-harakati sodir bo'lgani uchun «g'usna» so'zi maf'ul bih bo'ldi.

Maf'ulum bih fo'il kabi mufradda, tasniyada, jamda, muzakkarda, muannasda, ismi zohirda, ismi zamirda bo'ladi.

قرات الكتاب , قرأت الكتب , فهمت المسألة , ضربتك Bir fe'lning birdan boshlab, uchgacha maf'uli bo'lishi mumkin.

kabi. كسرت القلم , اعطيت التلميذ جائزة , علمتك محمدا مجتهدا

Mana bu fe'llardan avvalgisi bitta maf'ul, ikkinchisida ikkita maf'ul, uchinchisida uchta maf'ul bo'lgan.

Maf'ulum bih bilan noibi fo'il orasida farq quyidagichadir. Maf'ulum bih ma'lum fe'l so'ngidan kelib, ham mansub bo'ladi. Noibi fo'il esa, majhul fe'l so'ngidan kelib marfu' bo'ladi.

Bir maf'ulni nasbli qiladigan fe'llar ko'p bo'lsa-da, ikki maf'ulni nasbli qiladigan fe'llar juda ozdir. Uch maf'ulni nasbli qiladigan fe'llar esa juda ham ozdir. YA'ni, bir nechtaginadir.

Maf'ulum bih ko'proq fo'ildan so'ng keladi. Ba'zi vaqtlarda fo'ildan avval keladi. kabi. بنى البيت ابراهيم

Maf'ulum bih umuman fe'ldan keyin keladi. Ba'zi vaqtlarda esa biror maqsadni ko'zlab, fe'ldan oldin ham keladi. kabi. اياك نعبد

Maf'uli bih - qilinmish zotning ismi bo'lib, kalomda go'yo kimni? YOki nimani? degan savolga javob hukmida zikr etiladi. Maf'uli bih o'zbek tiliga tarjima qilinishda oxiriga (-ni) qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan: اكلت طعاما , Kamdan-kam ba'zi maf'uli bihlarning tarjimasiga (-ga) qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan: jumllaridagi Alloh va Zayd lafzlari kabi.

Qoida: Har bir maf'uli bih mansub bo'ladi.

Masalan: اعبد الله, لقيت زيدا فى السوق, أعطيت زيدا درهما Qoida: Fe'llarga

muttasil bo'lgan zamirlarning har biri hukman mansub bo'lib, maf'uli bih bo'ladi. Masala: اكرمت مسلماً, اكرمت مسلمين, اكرمت مسلمين, اكرمت مسلمات

Qoida: Maf'uli bih ma'lum siyg'ali fe'llarga xoslangandir. Majhul siyg'ali fe'llarning maf'uli bihlari zohir bo'lmaydi. Zero majhul fe'llarning haqiqiy fo'illari zikr qilinmaganligidan maf'uli bihlari marfu' bo'lib, fo'il maqomiga o'tadilar. Masalan ضربہ, ضربہما, ضربہم, ضربہا, ضربہما, ضربہن ضربہ, ضربک, ضربکما, ضربکم, ضربک, ضربکما, ضربکن, ضربنی, ضربنا :

Ko'pincha maf'uli bihlar fe'ldan keyin keladi. Inxisori tavhim (ma'noni chegaralanishi) uchun ba'zi vaqtda fe'ldan oldin keladi. Masalan:

زیدا - Faqat Zaydni urdim , الله أعبد - Faqat Alloh taologagina ibodat qilaman - نصيبك تنال - Faqat nasibangni olasan ضربت

Muzofin ilayhili maf'uli bihlar

رأيت فرس بكرٍ, اكلت لحم البقر, أخذت رقيم الحبيب, اكرمت فقراء البلد.

Sifatli maf'uli bihlar

رأيت رجلاً عالماً, أكلت لحماً مشوياً, كتبتُ مكتوباً عربياً, قتلْتُ حيةً كبيرةً

Ta'kidli maf'uli bihla

رأيت زيدا نفسه, أكلتُ الرمانَ كلّه, رأيتُ رجلين كليهما, رأيت الاحباب اجمعين,

Ba'zi fe'llarning ikkita maf'uli bihlari bo'ladi. Masalan:

اعطيتُ زيدا درهماً, علّمتُ بكراً علوماً, اعطيتُ زيدا لحماً, ألّبتُ زيدا جبةً

Ushbu jumalardagi tazyinotlar ham maf'uli bihlardir.

اجتهدتُ كلّ الإجتهد, عزّرتّه بعض التعزير, جلستُ احسن الجلوس, علّمتُ خير الاعمال, تفعل شرّ الفعل, نفعل اسهل الافعال

مفعول مطلق

Maf'ul mutlaq (ma'no kuchayturuvchi to'ldiruvchi)

كسرت الخادمة الصحيفة *** كسرت الخادمة الصحيفة كسرا

نام الوليد *** نام الوليد نوما خفيفا

دقت الساعة *** دقت الساعة دقتين

Mana yuqorida ikki tarafda uchtadan jumla. Bu jumlalardan chap tarafda bo'lganlari o'ng tarafdagi jumlalarining o'zi. Lekin farqi shundaki, chap tarafdagi jumlalarda o'ng tarafdagilarga qaraganda bir masdar ortiqdir. Misol uchun كسرت الخادمة الصحيفة deb aytsak, bunda gapirilayotgan tarelka ehtimol butunlay sinmagandir, balki yorilgandir yoki darz ketgandir deb o'ylashi mumkin. Agar endi bunga كسرا ni ottirib, كسرت الخادمة الصحيفة كسرا desak, darz ketgan yoki yorilgandir deb, o'ylashga o'rin qolmaydi. Balki tarelkani haqiqatda singanligini bildiradi. Masalan نام الوليد desak, gapirilayotgan bolaning nechuk uxlaganini bilinmaydi. U oz uxlaganmi, ko'p uxlaganmi, chalqancha uxlaganmi, yonini bosib uxlaganmi, tinch va rohat bilan uxlaganmi, qo'rqib uxlaganmi, buni bilinmaydi. Endi bunga نما خفيفا ni ziyoda qilib نما خفيفا نام الوليد desak, bolani engil uxlaganligini bildiradi.

SHuningdek دقت الساعة hamma payt soatning jiringlaganini bildiradi. Necha marta jiringlagani ma'lum emas. Endi bunga دقتين nini qo'shib, دقت الساعة desak, soatni necha marta jiringlagani ma'lum bo'ladi.

SHu tariqa fe'lni «ta'kidlash» uchun yoki «turini» bayoni uchun yoki «sonini» bayoni uchun, fe'l so'ngidan keltirilgan masdarga «maf'ulum mutlaq», deb ataladi.

Fe'l bilan maf'ulum mutlaqning moddalari (lafzlari) ko'proq bir xil bo'ladi. Misol uchun حفظ محمد الدرس حفظا kabi.

Mana bunda – حفظ fe'li bilan حفظا masdarining moddalari bir bo'lgan. Ba'zi bir vaqtda fe'l bilan masdar (maf'ulum mutlaq) lafzlari boshqa, ma'nolari bir xil bo'ladi. Misol uchun فرح التلميذ جزلا kabi. Mana bu misolda فرح fe'li bilan جزلا masdari, lafzda boshqa, ammo ma'noda bir xildir.

Ba'zi vaqtlarda maf'ulum mutlaqning fe'li hazf qilinadi. صبر صبرا kabi

taqdiridadir.

اجتهدت Ko'p vaqt masdar hazf qilinish, uning o'rniga sifati turadi. ko'rinishdadir. SHuningdek, masdar o'rnida kabi. Aslida اجتهدت كثيرا kabi. Bunda maf'ulum mutlaqdir. SHuningdek, masdarning adadini bildirgan narsa masdar o'rnida turadi. الاجتهاد , kavi. اجتهد كل تأت بعض التأثير

قرأت Ba'zi bir maf'uli mutlaqlar bir sifat bilan mavsuf bo'ladi. Masalan: قراءة جيدة, ضربت ضربا شديدا, سرت سيرا كثيرا
Maf'uli mutlaq fe'llarga xoslangan emas. Ba'zi vaqt ismi sifatlardan keyin ham maf'uli mutlaqlari zikr etiladi. Masalan: زيد ضارب ضربا شديد المال مسروق سرقة عجيبة, زيد حسن حسنا مقبولا,

مفعول أجله

Maf'ul liajlihi (sababni ifodalovchi to'ldiruvchi)

M: Muhammad kitobni peshqadam bo'lishni حفظ محمد الكتاب رغبة في التقدم M: (xohlagani uchun) so'zi «maf'ul liajlihi» deb ataladi.

Har bir ish sodir bo'lishida biror sabab bo'ladi.

Agar biz: وقف الجند (Askar to'xtadi) desak, eshituvchi Askar to'xtaganini tushunadi, lekin to'xtash sababini bilmaydi. Tinglovchiga sababini bildirish maqsadi ham bo'lsa: إجلالا للأمير (Askar amirni ululash uchun to'xtadi) deymiz, shunda fe'lning sababi tushuniladi. Mazkur misoldagi «ijlalan» so'zi «maf'ul liajlihi», deyiladi, u esa nasb holatida bo'ladi.

حفظ محمد الكتاب رغبة في التقدم «Muhammad kitobni peshqadam bo'lishga qiziqib yodladi» jumlasidagi «rabatan» so'zi,

حجّ الناس طلبا لمرضاة الله

«Odamlar Allohni roziligini talab qilib haj qildilar» jumlasidagi «talaban» so'zi,

زينت المدينة إكراما للقدام «Keluvchini ululab shahar bezatildi» jumlasidagi «ikroman» soʻzi mafʼul liajlihi boʻladi.

SHu kabi feʼl sodir qilgan sababni bayon qilish uchun aytilgan har bir ism mafʼul liajlihi, deb ataladi. «Mafʼulul liajlih»ni bilish uchun feʼlning oldiga «لم» (nima uchun?) savolini qoʻyish kerak. Agar shunga javob boʻlishga yarasa, oʻsha ism «mafʼulul liajlih» boʻladi. Masalan, yuqoridagi misoldagi feʼlning oldiga لم qoʻshib وقف الجند؟ deb savol bersak, اجلا لا لأمير shunga javob boʻlishga yaraydi.

مفعول فيه

Mafʼul fiyh (oʻrin-payt holi)

M: حفظ محمد الكتاب صباحا أمام المعلم Muhammad kitobni ertalab muallimning oldida yodladi jumlasidagi «صباحا ertalab» va «أمام oldida» soʻzlari mafʼul «fiyh», yoki «zarf», deb ataladi. Har bir ish-harakat biror bir zamon va makonda sodir boʻladi. Agar biz حفظ محمد الكتاب صباحا (Muhammad kitobni ertalab yodladi) deb aytsak, yodlash zamonini bayon qilgan boʻlamiz, u esa «ertalab» soʻzidir.

Agar biz حفظ محمد الكتاب أمام المعلم -: (Muhammad kitobni muallim oldida yodladi) deb aytsang, yodlash joyini bayon qilgan boʻlasan, u esa muallim oldidagi joydir. «Sabahan» soʻzi zarf zamon, «amama» soʻzi esa zarf makon, deyiladi. Bu ikala soʻz «mafʼul fiyh», deb ham nomlanadi.

Mafʼul fiyh esa nasb holatida boʻlishi lozim.

Zarf zamonlar;

«Ertalab» kabi soʻzlar «kechqurun, kun, tun, erta tong, ertaga, tong yorishgan vaqtida, tongda, hech qachon, vaqtida, vaqtida, bir lahza, bir soatda, bir muddat, bir yil, bir oyda».

Zarf makonlar;

«Oldida» kabi soʻzlar: «oldida, orqasida, orqada, ustida,

ostida, o'ngda, chapda, huzurida, bilan, birga, ro'parasida, ro'parasida, ro'parasida bariyd, farsax, mil.

YUqoridagi ta'rifdan anglanadiki, maf'ulun fiyh yo zamonni yo makonni anglatadigan ismdir. Zamonni anglatadigan ismga «zarfi zamon», makonni anglatadigan ismga esa «zarfi makon», deyiladi. SHuning uchun maf'ulun fiyhni «zarf», deb yuritilur.

Quyidagi ismlardan zarfi zamon va zarfi makonni ajrating.

صباحا. ماء. يوم. ليلة. برید. یمین. تحت. غد. سحر. میل. عند. وراء. شهر. سنة. مع. خلف.
فوق. شمال. إزاء. لحظة. ساعة. مدة. وقت. أمام. حين. قدام. تلقاء. عام. فجر. قرن.

مفعول معه

Maf'ul ma'ahu («bilan», «birga» ma'nosidagi to'ldiruvchi)

M: حفظ محمد والمصباح Muhammad chiroq bilan yodladi jumlasidagi

سرت Agar bizga bir odam: «maf'ul ma'ahu», deb ataladi. «chiroq المصباح» so'zi «maf'ul ma'ahu», deb ataladi. Agar bizga bir odam: «Tog' bo'ylab yurdim, oxiri maqsadimga etdim» desa, bu odamning tog' yonidagi yo'ldan yurib, maqsadiga etganini anglatadi. SHuningdek, agar sen bir joyga etib borish istagini bildirib, bir kishidan so'rasang, u senga:

اذهب والشارع الجديد

«YAngi yo'ldan borgin» deb aytsa, gapining ma'nosi, borishing yangi yo'l bo'ylab, o'ngga ham chapga ham burilmasdan yursang, shunda ko'zlagan maqsadimga etasan, deganidir. Birinchi misolda «tog'» so'zi, ikkinchi misoldagi «yo'l» so'zi «maf'ul ma'ahu» deb nomlanadi. «Maf'ul ma'ahu» nasb holatida bo'ladi, uning oldida kelgan «vov» esa «Vov ma'iya» deyiladi.

SHu kabi: (Muhammad chiroq bilan yodladi) - حفظ محمد والمصباح

(Amir askar bilan yurdi) سار الأمير والجند jumlasidagi «chiroq» so'zi, «askar» so'zi,

(Xalq Nil bo'ylab yo'naldi) jumlasidagi «Nil» توجه القوم و النيل

so‘zi maf’ul ma’ahudir.

Fe‘l vositasida sodir bo‘lgan narsaga dalolat qilgan har bir ism «maf’ul ma’ahu», deyiladi.

YUqorida o‘tgan mavzulardan bizga maf’ullar beshta ekanligi ma’lum bo‘ldi:

1. Maf’ul bih
2. Maf’ul mutlaq
3. Maf’ul liajlih
4. Maf’ul fih
5. Maf’ul ma’ah

المستثنى بإلا

«Illa» («lekin», «boshqa»)ning mustasnosi

Mustasno: إلا dan keyin kelib, إلا ning oldidagi jumla ma’nosining xilofini bildirgan ismdir. فريدا kabi. Bunda إلا ning oldidagi خرج التلامذة من الكتاب jumlasini, o‘quvchilarning maktabdan chiqqanliklarini anglatadi. Endi buning ortidan فريدا desak, boshqalar chiqib, Faridning chiqmagani bilinadi. Bu erda إلا so‘ngidan kelgan فريدا kalimasi إلا ning oldidagi jumla ma’nosining xilofini anglatyapti. SHuning uchun فريدا mustasno bo‘ladi.

إلا dan keyin zikr etilgan ism «mustasno», deb aytiladi, dedik. إلا ning oldidagi so‘z ya’ni unga qarab so‘zlangan ism esa «mustasno min’», deyiladi.

Masalan, yuqoridagi التلامذة «mustasno min’»dir. CHunki chiqish unga qarab so‘zlangan. CHiquvchi kishilar o‘quvchilar bo‘lgan. Masalan:

desak, bunda mustasno min’ الكتاب bo‘ladi. CHunki yodlash unga qarab so‘zlangan. Ana shu yodlangan ورقة esa mustasno bo‘ladi, negaki u yodlanmay qolgan.

Mustasno min' ba'zi vaqt zikr etiladi, ba'zi vaqtda esa zikr etilmaydi. Masalan, **ما اجتهد إلا خالد** u deganda, mustasno min' zikr etilmagan.

Mustasno min' zikr etilgan kalomga «tom», deyiladi. Zikr etilmaganiga «noqis», deyiladi.

ال ning oldidagi jumlada nafiyni (inkorni) anglatadigan biror narsa bo'lsa, unga «manfiy», deyiladi. Nafiyni anglatadigan narsa bo'lmasa, «musbat», deyiladi.

Masalan **خرج التلامذة من الكتاب إلا خالدًا** misolida, kalom musbat bo'lgan.

ما خرج التلامذة من الكتاب إلا خالدًا misolida kalom manfiy bo'lgan. Mustasno kalom tom va musbat bo'lganda, mansub bo'ladi. Boshqa vaqtlarda o'rniga qarab marfu', mansub, majrur bo'lishi mumkin.

الخال

Jumlada fo'il va maf'ulning hay'at (holat) va kayfiyatini bayon qilish uchun zikr qilingan ismga "hol", deyiladi.

Masalan **جَاءَ زَيْدٌ رَاكِبًا، رَأَيْتُ بَكْرًا جَ السَّاءِ** kabi.

Bir jumlada hol zikr qilinsa, ish bajarilgan vaqtda fo'il yoki maf'ul qanday hay'atda bo'lgani tushuniladi.

Hollar "Qanday hay'atda? "Qanday kayfiyatda? kabi savollarga javob hukmida zikr qilinadi. O'zbek tiliga tarjima qilinganida (-gan holda) kabi iboralar bilan ta'bir qilinadi.

Masalan: **جَاءَ زَيْدٌ دَ، جَاءَ زَيْدٌ رَاكِبًا** jumllarida bo'lgani kabi.

Qoida: Har bir hol mansub bo'ladi.

Masalan: **جَاءَ الرَّجُلُ رَاكِبًا، جَاءَ الرَّجُلَيْنِ رَاكِبَيْنِ، جَاءَ الرَّجُلُ رَاكِبًا، جَاءَتِ الْمَرْأَةُ رَاكِبًا، جَاءَتِ الْمَرْأَتَانِ رَاكِبَتَانِ، جَاءَتِ الْمَرْأَتَانِ رَاكِبَتَانِ، جَاءَتِ الْمَرْأَتَانِ رَاكِبَتَانِ، جَاءَتِ الْمَرْأَتَانِ رَاكِبَتَانِ**

Holning mavsufiga "sohibi hol", deyiladi.

Masalan: **جَاءَ زَيْدٌ دَ** jumlasidagi **جَاءَ زَيْدٌ دَ** sohibi holdir.

Qoida: Muzakkar va muannas bo'lishda hol o'z sohibiga ergashadi.

Masalan: *جَاءَتِ الْمَرْأَةُ رَاجِلًا ، جَاءَ الرَّجُلُ رَاكِبًا* kabi.

Qoida: Hollar har doim nakra bo'ladi. YUqoridagi jumlar bunga misol bo'la oladi.

Ammo *جَهْدُهُ* va *وَحْدَهُ* jumlaridagi *زَيْدًا* *وَحْدَهُ*، *فَ عَلَهُ زَيْ* د *جَهْدُهُ* zohiridan ma'rifa bo'lsa-da, aslida nakradir, deb aytiladi.

CHunki, *وَحْدَهُ* ni, *فَرِدًا* deb, *جَهْدُهُ* ni, *مُتَّهَدًا* deb, ta'vil qilingan.

Hol fo'il yoki maf'ulning holi bo'lishi e'tibori bilan ikki turlidir. 1. Fo'ilning holi. 2. Maf'ulning holi.

Fo'il hollarining misollari

ذَهَبَ زَيْ د *رَاكِبًا*، *جَاءَ زَيْ* د *مَاشِيًا*، *أَكَلَ زَيْ* د *جَالِسًا*، *جَلَسَ زَيْ* د *مُنْ فَرِدًا*، *نَظَرَ زَيْ* د *مَتَبَسِّمًا*، *ضَرَبَ اللِّ صُ* *مَغْلُولًا*،

ذَهَبَ زَيْ د *مَزُونًا*، *رَجَعَ زَيْ* د *مَسْرُورًا*، *تَكَلَّمَ زَيْ* د *فَرِحًا*، *نَامَ زَيْ* د *عُرْيَانًا*، *ذَهَبَ زَيْ* د *مَفِيقًا*، *رَجَعَ زَيْ* د *سَكْرَانًا*، *سَارَ زَيْ* د

سَرِيعًا، *ذَهَبَ زَيْ* د *فَقِيرًا*، *رَجَعَ زَيْ* د *غَنِيًّا*.

Maf'ul hollarining misollari

رَأَيْتُ زَيْدًا رَاكِبًا، *ضَرَبْتُ زَيْدًا جَالِسًا*، *زَوَّجْتُ زَيْدًا كَهْلًا*، *شَرِبْتُ الْمَاءَ بَارِدًا*، *أَكَلْتُ يَابِسًا*، *لَقِيتُ زَيْدًا مَغْمُومًا*، *دَاوَيْتُ زَيْدًا مَغْمُومًا*، *دَاوَيْتُ زَيْدًا مُوَمًّا*، *أَعَنْتُ زَيْدًا فَقِيرًا*، *رَبَّ زَيْدًا صَبِيًّا*، *رَأَيْتُ زَيْدًا عُرْيَانًا*، *قَتَّ* *(لَتُ الْي نَائِمًا ، رَكِبْتُ الْفَرَسَ مُسْرَجًا ، لَا تَأْكُلُ الطَّعَامَ حَارًّا وَلَا تَشْرَبُ الْمَاءَ بَارِدًا ، لَا تَرُودُ*

Ba'zi hollar ismi masdar siyq'asida bo'ladi. Lekin u

masdarlarning har biridan ismi fo'il ma'nosi iroda qilinadi.

Masalan:

مُع (، دَعَوْتُ عَلَنًا) مُافٍ (، قَ رَأْتُ مُافٍ تَ) (جَاهِرًا) (، قَ رَأْتُ جَهْرًا) (خَاطِنًا) (، أَمَلْتُ خَطًّا) (سَاهِيًا) (أَفْطَرْتُ سَهْوًا) (، فَ رَرْتُ) لَنَا

(. كَامِلًا) (، أَعْطَيْتُ الدَّيْنَ كَمَالًا) (تَامًا) (، قَ بَضْتُ ال ثَمَنَ تَامًا) (مُكَ رَرًا) (، سَ ي لْتُ تَكَ رَارًا) (خَ انْفًا) (خَوْفًا)

Hol faqat "maf'uli bih"ga xoslangan emas. Gohida

fo'ilning yoki maf'ulning muzofun ilayhlari bo'lgan ismlarning

ham hollari zikr qilinadi. Masalan:

كَابِي. (تَدَمَّعْتُ عِي نَا الْإِمَامَ وَاعْظًا، سِعْنَا صَوْتَ الْمَدْرِسِ مُقَرَّرًا)

Kam-kam muftado va xabarlarining ham hollari boʻladi.

Masalan: *كَأَيُّ دَآكِلِ جَالِسًا، هَذَا زَيِّ دَقَائِمًا* kabi.

Hollar koʻpincha ismi sifatdan boʻlsa-da, baʼzan ismi zotlarning ham hol boʻlgani koʻrinadi.

Masalan:

أَكَلْتُ التَّمَرَ رُطْبًا، أَكَلْتُ التَّمَرَ بُسْرًا، هَذَا بُسْرٌ رَأً أَطْيَبُ مِنْهُ رُطْبًا
أَكْرَمْتُ الْقَوْمَ جِيعًا، كَأَقٍ، قَاطِبٍ، عُمُومًا، كُلاً، طُرًّا، مَعًا yoki *مَتَمِّعِينَ* maʼnosida

boʻlib, hol boʻladi. Masalan:

أَكْرَمْتُ الْقَوْمَ جِيعًا، كَأَقٍ، قَاطِبٍ، عُمُومًا، كُلاً، طُرًّا، مَعًا
ثَلَاثَ ثَلَاثَ... عَشْرَةَ عَشْرَةَ (lafzlari ham) مَثَلَتْ، ثَلَاثَ... مَعَشَرَ، عَشَرَ maʼnosida boʻlib, hol boʻladi.

Masalan: *دَخَلَ الْقَوْمُ ثَلَاثَ، دَخَلَ الْقَوْمُ مَثَلَتْ، دَخَلَ الْقَوْمُ عَشَرَ، دَخَلَ الْقَوْمُ مَعَشَرَ*

Baʼzi jummalarda *غَيْر* lafzi mansub koʻrinishda hol boʻlib, undan

keyingi ism muzofun ilayh boʻlib majrur boʻladi. Masalan: *ذَهَبَ زَيِّ دَ*

غَيْرَ رَاكِبٍ، أَكَلَ زَيِّ دَ غَيْرَ جَالِسٍ، رَأَيْتُ زَيْدًا غَيْرَ قَائِمٍ، لَقِيتُ زَيْدًا غَيْرَ مَسْرُورٍ

Ish-harakat sodir boʻlish vaqtida foʻil yoki mafʼul bihning holatini bayon qilgan har bir ism «hol», boʻladi

M: *حَفِظَ مُحَمَّدٌ الْكِتَابَ جَالِسًا* - Muhammad kitobni oʻtirgan holda yodladi

(yoki *حَفِظَهُ صَحِيحًا* uni toʻgʻri yodladi) jumlasidagi «*جالسًا*» oʻtirgan holda» yoki «*صحيحًا*» toʻgʻri» soʻzlari «hol», deb ataladi.

Agar biz: «Amin suvni ichdi» deb aytsak, gap toʻgʻri boʻladi, biroq bu gapda ichish vaqtida foʻilning yoki mafʼul bihning holati maʼlum boʻlmaydi.

«*أَمِينَ*» Amin suvni turgan holatda «*تُورِبِ* ichdi»

desang, Aminning ichish vaqtidagi holatini bayon qilgan

boʻlasan.

«*أَمِينَ*» Amin suvni toza holida ichdi» desang ichish

vaqtida suvni holatini bayon qilgan bo'lasan. SHunga binoan UJIS (turgan holda) va CBIj (toza holda) so'zlari «hol», deb nomlanadi. «Hol» nasb holatida bo'ladi.

SHu kabi قائما, رائقا degandagi اقرأ محمد الدرس قائما, شرب فريد الماء رائقا kabi. Bulardan avvalgisi o'qish fe'li voqe' bo'lganida Muhammadning, ya'ni fo'ilning qanday holda bo'lganini, ikkinchisi, ichish fe'li voqe' bo'lgan vaqtda suvning, ya'ni maf'ulning qanday holda bo'lganini bildirgan. SHuning uchun bular hol bo'ladi.

Hol umuman nakra ismda bo'ladi. Ma'rifa ismning hol bo'lishi juda ham ozdir. وحدك degandagi انصرف وحدك kabi.

Hol mufradda va jumlada bo'ladi. Jumla bo'lganda jumlai fe'liyya va jumlai ismiyya bo'ladi.

وَأَنْتَ فَتَى hamda يركض degandagi جاء الغلام يركض, أطلب العلم وَأَنْتَ فَتَى jumalari kabi. Hol jumlai ismiyya bo'lganda, oldida ko'p vaqt «vov» bo'ladi. YUqoridagi وَأَنْتَ فَتَى kabi. Bu vovga «vovi holiyya», deyiladi.

Tanbeh: Holni bilish uchun fe'lning oldiga كيف (qanday) savolini keltirib qarash kerak. Agar shunga javob bo'lishga yarasa, u hol bo'ladi. Masalan, yuqoridagi misollarda fe'lning oldiga كيف keltirib,

كيف اقرأ محمد الدرس؟ كيف شرب فريد الماء؟ deb savol bersak, avvalgisiga قائما, ikkinchisiga رائما javob bo'lishga yaraydi.

Quyidagi hollardan fo'ilning holatini bildirganlari va maf'ulning holatini bildirganlarni ajrating.

التمييز

Tamyiz (aniqlashtiruvchi)

M: ذهابا degandagi يباع الكتاب برطل ذهب M: Kitob bir dirxam tillaga sotiladi jumlasidagi ذهابا» so'zi «tamyiz», deb nomlanadi.

Hajm, og'irlik, uzunlik o'lchovlari, sonlar kabi, barcha nomlar noaniq holatdagi so'zlardir.

Agar biz «Men bir qintor sotib oldim» deb jim tursang tinglovchi qintordan istalgan maqsad nimaligini tushunmaydi. Sotib olingan narsa kofe donimi, shakarmi, sovunmi yoki boshqa narsami, u bilolmaydi. Agar biz «Men bir qintor kofe donini sotib oldim» deb aytsang, qintordan istalgan maqsad nima ekanini aniqlashtirgan bo'lasan. Mazkur jumladagi kofe so'zi «tamyiz», deyiladi, u esa nasb holatida bo'ladi.

Quyidagi: «Savdogar bir irdab bug'doy, bir qintor shakar, yuz ziro' ipak sotdi».

«Men bir so' arpa, bir ratl asal, bir ziro' jun sotib oldim», jumllarida tamyizga misollar keltiriladi. Jumladagi ko'zlangan maqsadni ifodalovchi so'zdan keyin kelib u so'zni aniqlashtirib, ajratib bergan so'z «**tamyiz**», deyiladi.

المنادي

Munada (undalma)

Munodo - nido (chaqirish) uchun maxsus harflarning biri so'ngidan tushib, chaqirilgan zotning so'zlovchiga iltifot qilishi va so'zlanajak so'zga diqqat etishi talab etilgan ismdir. Gapdan anglashilgan ma'no tegishli bo'lgan shaxs yoki predmetni bildiruvchi bo'laklar bilan munosabatga kirishmaydi.

Arab tilidagi undalma gapning boshida, o'rtasida va oxirida kelishi mumkin va u hech qachon undalmalikni bildiruvchi yuklamasiz ishlatilmaydi.

Masalan: muallim «يا عبد الله, لا تلعب» (Ey Abdulloh, o'ynamagin) desa, Abdulloh ismli o'quvchining o'girilib qarashini va لا تلعب (o'ynamagin), degan so'zning diqqat etishini talab qilgan bo'ladi. SHuningdek, bu jumladagi عبد الله ismi «munodo» bo'ladi.

Nido harflari ushbulardir. يا, ايا, هيا, أى,

kabilar. يا عبد الله, ايا عبد الكريم, هيا عبد الرحمن, أى جمال الدين, أعماد الدين.

يَا yuklamasi. Bu yuklama ishlatilganida undalma ال artiklisiz va tanvinsiz bosh kelishikda keladi.

Masalan,

يَا مُحَمَّدُ - Ey, Muhammad, يَا طَالِبُ - Ey, student,

يَا نِسْوَانُ - Ey, ayollar, يَا إِخْوَانُ - hoy, birodarlar,

Agar undalma izofa shaklida bo'lsa, izofaning muzof qismi tushum kelishigida keladi. Masalan,

يَا حَبِيبُ الْقَلْبِ - Ey, ko'ngilning sevgani,

يَا رَبَّنَا - Ey, xudoyimiz,

يَا عَبْدَ اللَّهِ - Ey, Ollohing bandasi.

Undalma muzakkar bo'lsa أَيُّهَا, muannas bo'lsa أَيَّتُهَا yuklamalari (undalmaning sonidan qat'iy nazar) ishlatiladi va undalma ال artikli bilan keladi. Masalan,

أَيَّتُهَا السَّيِّرَاتُ - Ey, xonimlar, أَيَّتُهَا الطَّالِبَةُ - Ey, toliba,

Ba'zan أَيُّهَا va أَيَّتُهَا yuklamalari oldidan يَا yuklamasi ham qo'shilishi mumkin. Masalan,

يَا أَيُّهَا الْمُؤْمِنُونَ - Ey, mo'minlar, يَا أَيَّتُهَا النَّفْسُ

Notanish shaxsga murojat qilinganida, يَا yuklamasi ishlatiladi va undalma noaniq xolatda tushum kelishigida keladi. Masalan,

اللَّهُ so'ziga nisbatan bu yuklamaalar ishlatilmaydi, balki aloxida so'z shakli xizmatga keladi:

اللَّهُمَّ -> اللَّهُ

Munodo to'rt xil bo'ladi:

1. Nakrai maqsuda. 2. Nakrai g'oyri maqsuda. 3. Alami mufrad. 4. Muzof.

«Nakrai maqsuda» deb muayyan bir zot qasd qilingan nakraga aytiladi. Masalan muallim, ismini bilmagan bir o'quvchining o'ynab turganini ko'rib, unga qarab يا تلميذ لا تلعب desa, bunda تلميذ muayyan bir shogird (masalan, Usmon) maqsad etilgan bo'ladi. Va uning o'ynamasligi talab qilingan bo'ladi. esa تلميذ nakradir.

«Nakrai goyri maqsuda» deb muayyan bir zot qasd qilinmagan nakraga aytiladi. Masalan: muallim qiyin bir masalani so'zlash oldidan o'quvchilarning nazar diqqatlarini jalb etish uchun يا غافلا اسمع كلامي desa, bunda غافلا dan muayyan bir shogird maqsad bo'lmay, balki gaflat bosgan har bir shogirdning diqqat bilan tinglashi talab qilinadi.

«Alami mufrad» deb muzof bo'lmagan alamga aytiladi.
يا فرید, یا محمودان, یا محمودون kabi.

«Muzof» deb ikkinchi bir ismga nisbat berilgan ismga aytiladi.
يا عبد الله, يا أمير المؤمنين kabi.

Munodo muzof va nakrai goyri maqsuda bo'lganda mansub bo'ladi. يا أمير المؤمنين, يا غافلا kabi.

Alam mufrad va nakra maqsuda bo'lganda nimaga marfu' bo'lsa, shunga mabniy bo'ladi.

يا فرید, يا تلميذ, يا محمودان kabi. Bularning avvalgisi va ikkinchisi raf' alomatlari damma bo'lganidan dammaga mabniy bo'lgan. Keyingisining raf' alomati alif nun bo'lganligidan alif nunga mabniy bo'lgan.

خير كان

«Kana»ning xabari

كان Felining manosi <<bo'lmoq>>dir. O'zbek tilidagi<<bo'lmoq>> feli kabi arab tilida xam bu fel ikki vazifani bajaradi;

1.Mustaqil fel vazifasini . Masalan;

كُنْتُ فِي الْقَرْيَةِ_Kecha men qishloqda bo'lgan edim.

2.Ot yoki sifat bilan birga kelib,o'tgan yoki kelasi zamonda turgan qo'shma felning yordamchi feli vazifasini. Bunda bu fel bilan kelgan ot yoki sifat noaniq holatda ega bilan jinsda va sonda moslashgani xolda tushum kelishigida keladi.Masalan;

كَانَ الطَّالِبُ مَرِيضًا Student kasal edi.

كَانَ فَاطِمَةُ طَالِبَةً -Fotima student edi.

كُنَّا تَلَامِيذَ Biz o'quvchi bo'lgan edik.

M: كَانَ الْبُسْتَانُ مَثْمَرًا Bog' mevali bo'ldi jumlasidagi «مَثْمَرًا mevali» so'zi «kana»ning xabari deyiladi.

«Kana» fe'lidan keyin ikki ism kelib avvalgisi raf' qilinadi. U «kana»ning ismi deyiladi. Ikkinchisi esa nasb qilinadi. U «kana»ning xabari deyiladi. SHuning uchun «kana»ning xabari nasb ismlardan hisoblanadi.

اسم إنَّ

«Inna»ning ismi

«Ism bilan ifodalangan egani tushum kelishikda va kesimni bosh kelishikda boshkaruvchi yuklamalar »da zamonaviy arab grammatistlari «Egaga ta'sir kiluvchi yuklamalar», arab naxvchilar" " إِنَّ و أخواتها deb nomlaydigan barchaga ma'lum olti – إِنَّ , أُنَّ , كَانَّ , لَيْتَ , لَكِنَّ , لَعَلَّ , yuklamalari xakida ma'lumot berilgan. Shuningdek, «Ism bilan ifodalangan egani bosh kelishikda, kesimni tushum kelishikda boshkaruvchi yuklamalar» nomli to'rtinchi faslda, لا va مَا inkor yuklamalari misollar yordamida sanab o'tilgan. M: إِنَّ الْبُسْتَانُ مَثْمَرًا Haqiqatda bog' mevalidir jumlasidagi «الْبُسْتَانُ» so'zi «inna»ning ismi deyiladi.

«Inna» harfidan keyin ikki ism keladi. Avvalgisi nasb qilinib «inna»ning ismi, ikkinchisi esa raf' qilinib, «inna»ning xabari deyiladi. SHu sababli birinchi ism nasb ismlardan hisoblanadi.

Ma'lumki, gapning egasi har doim bosh kelishikda keladi. Lekin arab tilida shunday yuklamalar ham borki, ularning ta'sirida ehga tushum kelishigida kelishga majbur bo'ladi. Bunday yuklamalar 6ta:

1. إن – haqiqatda, haqiqatdan. ko'pincha bu yuklama o'zbek tiliga tarjima qilinmaydi. Masalan:

إن البيت واسع – (haqiqatda) uy kengdir.

إن الغرفة جميلة – (haqiqatda) xona kattadir.

إن العلم مفيد – (haqiqatda) ilm foydalidir.

Agar إن va shuga o'xshash yuklamalar fe'l kesimli gaplarga qo'shilsa, gapning egasi oldinga o'tadi. Boshqacha aytganda, bu yuklamalardan keyin bevosita gapning egasi keladi. Masalan:

كتب الطلاب هذه الجملة – talabalar bu jumlanı yozdilar.

إن الطلاب كتبوا هذه الجملة – haqiqatdan talabalar bu jumlanı yozdilar.

Agar gapning egasi kishilik olmoshidan iborat bo'lsa, bu yuklamalardan keyin sh olmoshga mos bo'lgan qo'shilib yoziluvchi olmosh keladi va sh yuklamalarga qo'shilib yoziladi. Masalan:

هي كتبت هذه المقالة – u qiz bu maqolani yozdi

إنها كتبت هذه المقالة – haqiqatdan u qiz bu maqolani yozdi.

I shaxs birlik va ko'plik birikma olmoshlari ikki xil variantda qo'shilishi mumkin:

إنى = إنتى

إننا = إنا

إن yuklamasi ishtirok etgan kesimli gapda ham, fe'l kesimli gapda ham gapning kesimi oldidan لا yuklamasi qo'shilishi mumkin. Va tarjima qilinmaydi. Masalan :

إن الله لرؤوف رحيم – haqiqatdan Olloh mehribon va rahmlidir

إن الطلاب كتبوا هذه الجملة – haqiqatdan talabalar bu jumlanı yozdilar.

tipidagi jummalarda ham إن qo'shilganida, gapning egasi tushum kelishigida keladi. Masalan:

إن للحيطان اذنان – Devorning ham qulog'i bor (so'zma –so'z tarjima qilganida : haqiqatdan quloq devornikidir.)

Agar yuklamasiga ما yuklamasi qo'shilib kelsa , ma'noda o'garish bo'lmaydi, lekin gapning egasi bosh kelishikda keladi. Masalan:

قد يكون الغيبُ حلوا إنما الحاضر أحمى – Kelajak shirin bo'lsa ehtimol, aslida hozirgi payt shirindir.

2. كَأَنَّ – go'yo, go'yoki, ...dek. Bu yuklama ham إن yuklamasi kabi morfologik xususiyatlarga ega.

كَأَنَّ زَيْنَبَ مَلَك – zaynab farishta kabi.

كَأَنَّ أَبَاكَ بَطْل – go'yo otang qahramondir.

...ki. Bu yuklama ko'pincha shaxsi ma'lum gaplarda to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarga qo'shiluvchi ergashiruvchi bo'lovchi vazifasini bajaradi. Masalan:

من المعلوم أن محمداً شاب عاقل

Ma'lumki, Muxammad aqlli yigitdir yoki

Muhammadning aqlli yigit ekanligi ma'lum.

من المستحيل أن الطالب قد فروا

Mumkin emaski, talabala qochishgan bo'lsa. Yoki

Talabalarining qochib ketishlari mumkin emas.

سمعنا كلنا أن الصيام مفيداً

– Biz hammamiz eshitdikki, ro'za tutish foydalidir.

Yoki Biz x;ammamiz ro'za tutishning foydali ekanligini eshitdik.

Eslatma. Tuldiruvchi ergash gapli gaplarda bosh gap- eshitdik.

— قال Eslatma. To'ldiruvchi ergash gapli gaplarda bosh gapning kesimi —
demok, fe'lidan iborat bo'lsa, أن yuklamasi ma'nosida إن yuklamasi ishlatiladi.
و لكن — lekin, biror. Bu yuklama zidlovchi
boglovchi vazifasida keladi. Masalan:
كلنا ذهينا إلى حديقة الحيوانات و لكن مخمودا لم يذهب
— Barchamiz hayvonot bogiga bordik, lekin Maxmud bormadi.

— لعل eshtimol, shoyad. Bu yuklama gumonni, amalga oshishi ham, oshmasligi
ham mumkin bo'lgan tilakni bildiradi. Mas.,

لعل أخاه يفهم – Ehtimol, uning (mz) akasi tushunar.

لهلكم تفلهون – Shoyadki (zora), sizlar yutuqqa erishsangiz.
6, ليت — koshki. Bu yuklama amalga oshirish mumkin
bulmagan tilakni bildiradi. Masalan: يا ليتنى كنت ترابا
Oh, koshki edi men tuproqqa aylansam.